

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“FILOLOGIYA MASALALARI – YOSH
TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2019-yil 14-noyabr

TOSHKENT – 2019

<i>Diana Agabekova, Habibiddin Luqmonov</i> Chet tilida tinglab tushunish kompetensiyasini takomillashtirish usul va metodlari haqida	557
<i>Gofurova Dilnoza</i> Til o'rganishning ahamiyati va ikkinchi tilni o'rganishda mutolaaning o'rni	563
<i>Lobarxon Yo'ldosheva, Dilmurod Eshonqulov</i> Xorijiy tilni o'qitishda yozish kompetensiyasi va uni rivojlantirish usullari	568
<i>Gulshan Musulmonova</i> Sayyid Qosimiy asarlarining qo'lyozmalari	572
<i>Muxlisa Vohidova, Elyor Rajabov</i> O'zbek adabiyotida yangicha salbiy qahramon	578
<i>Orifjon Olimjonov</i> Fozila Sulaymonovaning "Sharq va G'arb" kitobiga oid mulohazalar	581
<i>Quvonchbek Mamiraliyev</i> Shavkat Rahmon she'rlarida vatan obrazi talqinlari	582
<i>Mirzohid Umarov</i> "Go'ro'g'li" obraziga bir nazar	585
<i>Elyor Alimardonov</i> O'zbek va Turkman tillari alifbolarini qiyosiy o'rganishga doir	587

kutilgan natijaga erisha olmagan, borgan kunining o'zidayoq zaharlab o'ldirilgan ayol, uning eri va onadan ajralgan to'rtta go'dak taqdiriga bee'tibor bo'lmaydi. U bechorahol ota-bolalarga duch kelib, joniga oro kirib, ko'ngillarini ko'taradi va ro'shnolik sari yetaklaydi:

*Ildayga qadam qo'y, aqling ol yig'ib,
Har na bo'lsa, o'tgan gapni eslama.
Orqaga qayirma umid shoxini,
Har na bo'lsa, o'tganingni eslama.*

Go'ro'g'li yigitga va uning farzandlariga yordam qo'lini cho'zib, yaxshi hayot hadya etadi. Uning adolati, odil podshoh bo'lganligini shu kabi o'rinlardan ham bilishimiz mumkin. Umuman, doston xalqning qadimiy va boy tarixini, jangovar o'tmishini, milliy-ma'naviy qadriyatlar mazmuni va mohiyatini yuksak badiiyat bilan ko'rsatib bera olgan ajoyib badiiy-qomusiy merosdir. Ushbu merosdan har bir avlod boricha foydalanishga haqli. Shuning uchun bu kabi ulkan boyliklarni asrab, keying avlodlarga ham yetkazish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T, Husainova Z. Go'ro'g'li o'zbek xalq dostonlari. — T.: Sharq, 2006.
2. O'zbek xalq poetikasi ijodi. — T.: O'qituvchi, 1980.
3. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. — T.: Fan, 2011. 240-bet.
4. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. — T.: Fan, 112-bet

O'ZBEK VA TURKMAN TILLARI ALIFBOLARINI QIYOSIY O'RGANISHGA DOIR

Elyor Alimardanov

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-kurs magistri

Annotatsiya. *O'zbek va turkman tillarining qiyosiy o'rganilishi ko'p jihatdan alifbolarining xususiyatiga bog'liq, chunki alifbolar har bir tilning xususiyatini aks ettiradi. Shu tufayli qarindosh tillarning qiyosiy o'rganilishini alifbolardan boshlash lozim. Ushbu maqolada bu ikki xalq istifoda etib kelgan kirill yozuvi va joriy lotin alifbosi qiyosi berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, turkman tili, alifbo, kirill alifbosi, lotin alifbosi, unli va undosh tovushlar, fonema, grafema, harf.*

O'zbek va turkman tillari turkiy tillar oilasiga kiradi va ular kelib chiqish jihatidan turli tarmoqlarni tashkil etadi. O'zbek tili qarluq guruhiga kirsa, turkman tili esa o'g'uz guruhiga taalluqlidir. Shu jihatdan bu tillar umumiy o'xshashligi (turkiy tilga mansubligi) bilan birga jiddiy farqlarga ham ega. Bu ko'proq tilning fonetik tizimida o'ziga xosliklarni yuzaga keltirgan. Yana

shunisi ma'lumki, o'zbek adabiy tili boshqa turkiy tillardan singarmonizm qonuniga amal qilmasligi bu ikki til alifbolarini yaratishda muayyan darajada o'ziga xoslikni, milliylikni keltirib chiqargan.

Alifbolardagi o'ziga xoslikni qiyoslashdan avval bu ikki tilning tarixiga to'xtalishni lozim topamiz. Avval aytganimizdek, turkiy tillar tarkibiga kiruvchi o'zbek va turkman tillari til oilasining ikki: qarluq va o'g'uz guruhlariga mansub bo'lib, til taraqqiyoti jarayonida hudud jihatdan yaqinligi, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilining o'tmishi *chig'atoy turkchasi* nomi bilan ataladigan eski o'zbek tili asrlar mobaynida turkman tili uchun ham o'z ta'sirini o'tkazgani va boshqa sabablarga ko'ra, bu ikki til o'ziga xos xarakterli mushtarak jihatlarga egadir. Xususan, o'zbek tili shakllanishi uchun muhim bo'lgan 3 lahjaning bittasi o'g'uz lahjasi bo'lib, hozirgi o'zbek tilining rivojlanishida ushbu shevaning sezilarli o'rne bor. Turkman tili esa boshqa o'g'uz guruhi tillaridan ayri va farqli jihatlari bor:

Turkman	O'g'uz tillari
ber	Ver
ba:r	var (get)
bol	Ol
men	Ben

Turkman atamasi, tili va tarixi to'grisida. Turkmanlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tomonidan keltirilgan bo'lib, olim "yuz ko'rinishi turklarga mengzash (turkmonand – turki mengzash), ikki tilni ham mukammal bilib, tarjimonlik qilgan (tarjimon), imon keltirib (turk imon) islomni qabul qilgan o'g'uzlar" deb keltirib o'tadi (Абу Рейхан Мухаммед ибн Ахмед. Собрание сведений для познания драгоценностей. М. - Л., 1964, 193 с.) [1, 17-bet]. Shuningdek, turkmanlar haqida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

"Turkman" atamasining etimologiyasi yuzasidan turlicha fikrlar mavjud. XIV asr mashhur tarixchisi Rashiddin Fazlulloh etnonimni fors tilida "turk monand" ("turkka mengzash") so'zlaridan kelib chiqqan degan ma'lumotni Beruniy asarlariga tayanib qayd etgan [2, 67-bet]. XVIII asrda fransuz olimi D.Erbelo o'g'uzlarning Jayhun daryosidan kechib, Xuroson taraflarga o'tib joylashgani va ularning mahalliy xalq (xurosonliklar) tomonidan turkman (türkmen) yoki turkoman (türkoman) deb atalganliklari haqida qayd etadi. Turkologiyada ko'proq Jeyn Denining fikri ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan bo'lib, uningcha, turk+men, ya'ni men turk so'zi qo'shilmasidan hosil bo'lgan [3, 233-bet]. Bunday qarashlarni to'liq deb bo'lmaydi, balki hozir ham turkman so'zi etimologiyasini qayta yaratishga hojat bor deb hisoblaymiz.

Turkman tili ham qardosh tillar singari ko'p shevali til hisoblanadi. Yovmut, Taka, Salir, Sariq, Go'klan, Ersari, Chovdir va boshqalar. Turkman adabiy tili Yovmut dialektiga tayangan bo'lib, shu bilan birgalikda Taka dialekti ham 1920-yillarda shakllanayotgan turkman adabiy tili uchun muhim rol o'ynagan [4, 6-bet].

O'zbek va turkman alifbolari tarixiga doir. Turkiy xalqlar hayotida VIII asrga qadar turkiy-run (qisman, uyg'ur) yozuvi iste'molda bo'lib, arablar istilosida arab yozuvi kirib keldi. Ushbu yozuv islom dini ta'sirida keyingi davrlarda ham muqim o'rin egalladi (1929-yilgacha). XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida Kavkaz, Turkiya, Qrim-tatar va Markaziy Osiyo turkiy xalqlari o'rtasida til va imlo islohotlari jadal ilgari surila boshlandi. Avvalboshda, mavjud arab yozuvi isloh etildi (1923-yil), biroz keyinroq esa lotin yozuvi asosida umumturkiy yangi alifbo joriy etildi. Mavjud alifbo 1940-yilga qadar amalda bo'lib, ushbu yildan e'tiboran sobiq Ittifoq tarkibidagi davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston va Turkmaniston ham kirill yozuvini qabul qilishdi va 1994-yilga qadar kirill yozuvidan foydalanishdi. Quyida kirill yozuvi asosidagi o'zbek va turkman alifbolarining qiyosi keltiriladi:

I. Ayni fonemalarni ifoda etishda qo'llanadigan grafemalar

O'zbek kirill alifbosi	Turkman kirill alifbosi
Бб	Бб
Вв	Вв
Дд	Дд
Ее	Ее
Ёё	Ёё
Ии	Ии
Йй	Йй
Кк	Кк
Лл	Лл
Мм	Мм
Нн	Нн
Пп	Пп
Рр	Рр
Тт	Тт
Уу	Уу
Фф	Фф
Цц	Цц
Чч	Чч
Шш	Шш
Ъъ	Ъъ
Ьь	Ьь
Ээ	Ээ
Юю	Юю
Яя	Яя

II. Qisman mos grafemalar

O'zbek	Turkman
Гг	Гг
Жж	Жж
Зз	Зз
Сс	Сс
Хх	Хх

III. O'zbek tili uchun xos bo'lgan grafemalar

Аа	til oldi, keng, lablanmagan
Оо	keng, til orqa, lablangan
Ў ў	o'rta keng, til orqa, lablangan
Қ қ	chuqur til orqa, portlovchi, jaransiz
Ғ ғ	chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jaranli
Ҳ ҳ	bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz

IV. Turkman tili uchun xos grafema

Aa	til orqa, keng, lablanmagan
Ж ж	til oldi, sirg'aluvchi, jarangli
Oo	til orqa, o'rta keng, lablangan
Ө ө	o'rta keng, til oldi, lablangan
Ҳ ҳ	til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli
Ү ү	til oldi, yuqori tor, lablangan
Ш ш	til oldi, portlovchi, jarangsiz
Ы ы	til orqa, yuqori tor, lablanmagan
Ә ә	til oldi, quyi keng, lablanmagan

Shuni aytish kerakki, kirill alifbosi asosidagi o'zbek alifbosida ham turkman alifbosida ham to'g'ridan-to'g'ri rus grafikasidan ko'chirimlar mavjud:

-ikkala tilda ham begona bo'lgan, ya'ni o'zlashgan so'zlarga tovush uchun yozuvda alohida grafima tanlangan: Цц. Shuningdek, Шш undosh harfi turkman tilida mavjud;

-“y”lashgan (Ёё, Яя, Юю,) harflarning mavjudligi, alifboda ortiqchalikni keltirib chiqarish bilan birga, grafikada turli chalkashlik va har xilliklarga sabab bo'ladi.

90-yillarga kelib, Ittifoq tarkibidagi davlatlar mustaqil bo'la boshlagach, siyosiy jarayon bilan hamohang tarzda imlo-yozuv masalalari ham o'zgarib bordi. Lotin alifbosiga o'tish jarayonida ularda o'xshash va farqli xususiyatlar ko'zga tashlandi. Xususan, 1993-yilda har ikkala davlatda ham yozuv islohoti bo'lib, lotin alifbosi asosida yangi alifbo joriy etildi. Bir necha o'zgarishlardan so'ng, ikki til alifbosi nisbatan barqarorlashib, quyidagicha muvofiqlikni kasb etdi:

I. Ayni fonemalarni ifoda etishda qo'llanadigan grafemalar

O'zbek lotin alifbosi	Turkman lotin alifbosi
Bb	Bb
Dd	Dd
Ee	Ee
Ff	Ff
Jj	Jj
Ii	Ii
Ll	Ll
Mm	Mm
Nn	Nn
Pp	Pp
Rr	Rr
Tt	Tt
Uu	Uu

II. Qisman mos grafemalar

Gg	Gg
Hh	Hh
Kk	Kk
Ss	Ss
Zz	Zz

III. O'zbek tili uchun xos bo'lgan

Aa	til oldi, quyi-keng, lablanmagan
Oo	til orqa, quyi-keng lablanmagan
Qq	chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz

Vv	lab, sirg'aluvchi, jarangli
Xx	chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz
O'o'	o'rta-keng, til orqa, lablangan
G'g'	chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli
Shsh	til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz
Chch	til oldi, portlovchi, jarangsiz
Ngng	til orqa, portlovchi, jarangli
' (apostrof)	

IV. Turkman tili uchun xos bo'lgan

Aa	til orqa, quyi-keng, lablanmagan
Çç	til oldi, portlovchi, jarangsiz
Ää [ä]	til oldi, quyi keng, lablanmagan
Žž	til oldi, portlovchi, jarangli
Ňň	til orqa, portlovchi, jarangli
Oo	o'rta - keng, til orqa, lablangan
Öö	o'rta - keng, til oldi, lablangan
Şş	til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz
Üü	yuqori-tor, til oldi, lablangan
Ww	lab-lab, sirg'aluvchi, jarangli
Yy	yuqori-tor, til orqa, lablanmagan
Ýý	til o'rta, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli

Kirill va lotin yozuvlari asosidagi o'zbek va turkman alifbolarida tilning o'ziga xos xususiyatlari asosida farqlar mavjud. Xususan, o'zbek kirill alifbosida 35 ta (27 ta undosh, 6 ta unli grafema hamda yumshatish va ayirish belgilari), lotin alifbosida 30 ta grafema (23 ta undosh, 6 ta unli va tutuq belgisi) bor bo'lsa, turkman kirill alifbosida 38 ta (27 ta undosh, 9 ta unli hamda ayirish va yumshatish belgilari), lotin alifbosida esa 30 ta grafema (21 ta undosh, 9 ta unli) bor.

Kirill alifbosida bo'lgani kabi, o'zbek va turkman lotin alifbolarining ham o'ziga xos xarakterli jihatlari bor:

- o'zbek alifbosida qo'sh undosh (Shsh, Chch, Ngng) grafemalarning mavjudligi;
- diakretik belgisi O'o' va G'g' harflarining yozma (Öö, Ğğ) va bosma (O'o', G'g') ko'rinishlarida aniq diakretik belgining mavjud emasligi;
- kirill alifbosida milliy til uchun emas, ajnabiy til uchun xizmat qiladigan yumshatish va ayirish belgilari o'rinda ' (tutuq belgi)ning saqlanganligi;
- turkman alifbosi eski turkiy tildan meros birlamchi cho'ziq unlilar uchun alohida grafema yoki diakretik belgilarning mavjud emasligi [5, 12-bet].

Xulosa. Lotin alifbosiga o'tish O'zbekistonda ham, Turkmanistonda ham sobiq Ittifoq parchalangandan keyin ayni bir davrga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, ikkala davlatda ham bu jarayon turlicha kechdi. Turkmaniston 1995-yilgi qabul qilingan lotin yozuvi namunasida bir yilda, butunlay esa 2000-yilda o'tib, kirill alifbosidan voz kechgan bo'lsa, O'zbekiston 1995-yilgi lotin alifbosi asosidagi yangi o'zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Bir vaqtning o'zida ikki lotin va kirill alifbosidan foydalanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Weýisow B. Türkmen diliniň taryhy. – Aşgabat, 2008.
2. Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абу-л Гази хана Хивинского. – М.-Л., 1958.
3. Mehmet K. Türkmen türkçesi //Türk lehçeleri grameri. Ankara, 2007.
4. US Peace Corps Turkmenistan. Turkmen Language Grammar Guide. Ashgabat, 2012.
5. Weýisow B., Babaýewa G. Türkmen dili. -Aşgabat, 2010.